

Iqtisodiy kategoriyalar tizimida “aholi turmush sifati” konsepsiyasining xususiyatlari

Dadaxon Baxtiyor o'g'li Hikmatillayev
Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya: Maqola “aholi turmush sifati” tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyalarni qiyosiy tahlil qilish va bozor iqtisodiyoti sharoitida uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, farovonlik, “hayot sifati”, “aholi sifati”, turmush sifati, aholi daromadlari

Characteristics of the concept of “population quality of life” in the system of economic categories

Dadaxon Baxtiyor o'glu Hikmatillayev
Asia International University

Abstract: The article is devoted to the comparative analysis of socio-economic categories related to the concept of “population quality of life” and to the determination of the factors affecting its formation in the conditions of the market economy.

Keywords: economic growth, well-being, “quality of life”, “demographic quality”, “population quality of life”, population income

Iqtisodiy o'sish deganda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmining doimiy o'sishi va ijtimoiy rivojlanishning texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarining yaxshilanishi tushuniladi. Iqtisodiy o'sishning yakuniy maqsadi aholi jon boshiga real ishlab chiqarish hajmini oshirishdan iborat. Ijtimoiy-iqtisodiy jihatni tahlil qilishda uzoq vaqtlardan beri asosiy tushuncha sifatida qo'llanilgan “farovonlik” atamasi iqtisodiy o'sish kontsepsiyasiga ko'proq mos keladi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Umuman olganda, u jamiyat taraqqiyoti g'oyasini umumlashtiruvchi ma'lum bir sintezni, iqtisodiy munosabatlarning tabiatini, qisman aholining hayot darajasi va sifatini o'z ichiga oladi.

Respublikamizda aholi turmush sifatini yaxshilash, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilib, muayyan ijobiy natijalarga erishilmoqda. Xususan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish” yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Ammo bugungi kunda O'zbekistonda o'rtacha

turmush darajasi ko'rsatkichining ijobiy dinamikasiga qaramay, uning mintaqalar bo'yicha ancha kuchli tabaqalanishi saqlanib qolmoqda. Bu holat jamiyat taraqqiyotiga va innovatsiyaga yo'naltirilgan iqtisodiyotning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Shu munosabat bilan, hududlarda aholining turmush darajasini o'rganish va vaqt o'tishi bilan ortib borayotgan mintaqaviy tabaqalanishni yumshatish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish dolzarbdir.

Hozirgi vaqtda ilmiy doiralarda "aholi turmush sifati" tushunchasini aniqlash bo'yicha munozaralar olib borilmoqda, bu masala bo'yicha aniq ilmiy to'xtamga kelinmagan. Eng katta muammo - bu turmush darajasi va aholi turmush sifati kabi toifalar o'rtasidagi farqlarni aniqlashtirishdir. Shubhasiz, bu ikki toifa o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud: qoida tariqasida, yuqori turmush darajasi hayotning yuqori sifatiga mos keladi va aksincha.

Dastlab shuni ta'kidlash kerakki, postindustrial jamiyatga o'tish bilan iqtisodiy maqsadlar tizimi o'zgarmoqda: iqtisodiy o'sish kontseptsiyasidan aholi turmush sifati doktrinasiga o'tish amalga oshirilmoqda. Aholi turmush darajasini oshirish sohasidagi davlat siyosati masalalarini samarali o'rganish uchun muhokama etilayotgan mavzuning fundamental tushunchalarini aniq tushunish zarur.

Hozirgi kunda iqtisodiy o'sishning o'zi ekologik, madaniy va ijtimoiy muammolarni hal qila olmasligi ayon bo'lmoqda. Jamiyat rivojlanishining yangi mezonlari, birinchi navbatda, insonning o'zi, uning yangi bilimlarni yaratish va noyob ma'lumotlarga ega bo'lish qobiliyati bilan bog'liq. Ijtimoiy taraqqiyotning yangi modeliga o'tish xolisona zamonamizning global muammolarini hal qilishga yangicha qarash talabi bilan shartlangan edi.

Aholi daromadlarining taqsimlanishi va aholi turmush sifatini o'rganish metodologiyasi, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilish mexanizmiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar Kelsey J. Okonor, T.Xan, D.Stanko, G.Basso, M.Dolls, S.Bexrendt, J.Berg, R.Merkl, B.Babajanyan, R. Bettie3 kabi chet el olimlarining ilmiy ishlarida tahlil etilgan[4, 6, 7, 8, 9, 14, 15, 17].

Yaqin xorij mamlakatlarida aholi turmush sifati konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, davlatni ijtimoiy shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari F.I.Sharokov, N.A.Volgin, V.V.Antropov, S.V.Kalashnikov va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan[30, 33, 37, 46].

O'zbekistonlik A.V.Vaxabov, T.M.Axmedov, Q.X.Abduraxmonov, X.P.Abulqosimov, N.M.Majidov, B.X.Umurzoqov, R.R.Xasanov, M.K.Abdullaeva, R.F.Djumanova, N.Zokirova, M.A.Xakimova, B.Sh.Xusanov, M.O.Oteuliev va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida aholini ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini aniqlash metodologiyasi, mamlakatda aholi turmush darajasi va turmush sifatini baholash yo'nalishlari, ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishning ilg'or xorij tajribasidan mamlakatimiz amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlari kabi masalalar tadqiq etilgan [1, 27, 28,

34, 35, 36, 39, 42, 43, 44, 45]

Hayot sifati nazariyasi G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada shakllangan va tadqiqotlarning alohida sohasi sifatida 1960-yillarda ilmiy muommalarga kirgan [26]. O'sha vaqtdan boshlab jamiyat, turli xil ijtimoiy guruh va shaxslar turmush sifatini o'lchash va yaxshilash masalasi nafaqat jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini hal qilishda, balki turli dastur va davlat siyosati samaradorligini baholashda ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1950-yillarning ikkinchi yarmida AQSHda, keyingi yillarda esa boshqa xorijiy mamlakatlarda "hayot sifati" tushunchasi paydo bo'ldi. Bu xorijlik mualliflarning asosan bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar fuqarolarining turmush sharoitlarini tahlil qilishlari, hayot sifatini hayotning qulayligini belgilovchi shartlar majmui sifatida taqdim etishlari, ya'ni inson ehtiyojlarini qondirishga insoniy istaklar zaruriyatga mos kelmasligi bilan izohlanadi.

Hayot sifati tushunchasining xususiyatlari quyida keltirilganlar bilan izohlanadi:

Birinchi, hayot sifati juda ko'p qirrali tushuncha bo'lib, turmush darajasidan beqiyos kengroqdir. Bu iqtisod doirasidan ancha uzoqqa chiqadigan kategoriya, birinchi navbatda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi sotsiologik kategoriyadir.

Ikkinchi, hayot sifatining ikki tomoni bor: ob'ektiv va sub'ektiv. Hayot sifatini ob'ektiv baholash mezoni bu odamlarning ehtiyojlari va manfaatlarining ilmiy standartlari bo'lib, ularga nisbatan ularning qanoatlanish darajasini ob'ektiv baholash mumkin. Boshqa tomondan, uni faqat sub'ektlarning o'zlari baholashi mumkin. Ehtiyojlarning aksariyati individualdir va hech qanday statistik qiymatlar bilan belgilanmagan va amalda faqat odamlar ongida va shunga mos ravishda ularning shaxsiy fikrlari va baholashlarida mavjud. Shunga ko'ra, hayot sifatini baholash ikki shaklda bo'ladi: bir tomondan, bu ilmiy asoslangan ehtiyoj va qiziqishlarni qondirish darajasi, ikkinchi tomondan, odamlarning hayot sifati bilan qoniqish.

Uchinchi, hayot sifati boshqa ijtimoiy-iqtisodiy toifalardan ajratilgan kategoriya emas, balki ularning ko'plarini birlashtiradi, sifat jihatiga kiradi.

Shunday qilib, hayot sifatining tarkibiy qismlari - bu turmush tarzi va turmush darajasi va sifat jihatidan boyitilgan atrof-muhit.

Garchi ko'p tadqiqotchilar [10, 11, 12, 13, 23, 24, 25] turmush sifati konsepsiyasining murakkabligi va uni turli xil omillar yordamida baholash zarurligi to'g'risidagi xulosaga kelishgan bo'lsalar-da, turmush sifatini belgilovchi omillar to'g'risida umumiy qabul qilingan tasnif mavjud emas. Ilmiy adabiyotlarda faqat turmush sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va tizimlashtirish va shu omillar o'rtasidagi munosabatni tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan taxminlar ko'rib chiqilgan. Aholi turmush darajasi va aholining o'ziga xos xususiyatlari o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjudligi "aholi sifati" atamasining paydo bo'lishiga va uni o'rganish, xususan, iqtisodchilar tomonidan o'rganilishiga olib keldi. Sobiq Sovet

Ittifoqi ilmiy adabiyotlarida esa "aholi sifati" iborasi birinchi marta demograflar tomonidan taklif qilingan [38]. Demografiya doirasida turmush sifati uning sog'liqqa va aholining boshqa demografik ko'rsatkichlariga ta'siri nuqtai nazaridan o'rganiladi. Demograflar aholi turmush sifati va kasallanish va o'lim o'rtasida aniq bog'liqlikni ko'rsatib beradilar.

Mamlakatning rivojlanish darajasi, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy muhit odamlarga yuqori turmush sifatiga erishish imkonini beradi. Odamlar tashqi muhitdan foydalana oladimi, yuqori jismoniy, shaxsiy rivojlanish, moddiy va ijtimoiy farovonlikka intila oladimi yoki yo'qmi, buni ichki muhit belgilaydi. Shunga asoslanib, turmush sifatini belgilaydigan omillarning ikkita guruhini ajratish mumkin. Birinchi guruh davlat siyosati choralari bilan tartibga solinib bo'lmaydigan (iqlim sharoiti va uning ko'rsatkichlari, mamlakatning geografik joylashuvi) hamda davlat siyosati choralari ta'sirida bo'lgan (siyosiy barqarorlik, korrupsiya, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy ta'minot va boshqalar) omillarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi guruh insonning o'zi boshqarishi mumkin bo'lgan omillardan iborat (sog'lig'ining holati, ta'lim darajasi, oilasi, bo'sh vaqt va boshqalar). B.Lindstrom va B.Eriksson [16] turmush sifatini belgilovchi omillarni qaysi sohani ifodalashiga qarab aniqroq toifalarga ajratishni taklif qilgan: global, tashqi, shaxslararo yoki shaxsiy.

1998 yilda farovonlik iqtisodiyotini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun Nobel mukofotini olgan A.Sen inson taraqqiyotining muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, iqtisodiyot aholi daromadlariga emas, balki imkoniyatlar tengligiga qaratilishi kerak. Uning nazariyasining asosi barqaror rivojlanishning klassik nazariyasi tamoyillariga zid bo'lib, kelajak avlodlar farovonligini e'tiborsiz qoldirib, shaxsiy farovonlikni oshirish va tenglashtirishga qaratilgan. A.Sen, shuningdek, klassik farovonlik iqtisodiyotining tahlil birligi bo'lgan uy xo'jaliklarining farovonligi nafaqat pul qiymatidagi umumiy daromad bilan, balki bozorda sotib olinmaydigan ijtimoiy yordamning turli elementlari bilan ham o'lchanishini ta'kidlaydi, chunki ularda hech qanday ijtimoiy yordam mavjud emas [22]. Tadqiqotchining fikricha, yangi farovonlik iqtisodiyoti uchun asos yaratishning asosiy elementi iqtisodiy va ijtimoiy siyosatdir.

Ayrim mualliflar aholi turmush sifati - moddiy iste'mol darajasini, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri to'lanmagan tovarlar iste'molini tavsiflovchi ko'rsatkichlar to'plami,¹² deb keltirishadi. Bu toifa odamlarning hayotiy strategiyalarini amalga oshirish darajasini, ularning hayotiy ehtiyojlarini qondirish darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi sifatida qaraladi.

Mavjud nuqtai nazarlarni farovonlik, turmush tarzi va hayot sifatining xususiyatlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqib, yagona asosga - inson ehtiyojlarini qondirishga asoslangan turmush sifatiga o'xshash toifalarni belgilash tavsiya etiladi. Turmush sifatini belgilashda insonning jamiyatning faol a'zosi bo'lishiga imkon beradigan ehtiyojlar majmuini belgilash zarur va ustuvor hisoblanadi. Inson ehtiyojlari sivilizatsiya rivojlanishi bilan doimiy ravishda ortib borayotgan deb qarash kerak.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ayrim jihatlarining umumlashtirilgan ifodasi bo'lib, "turmush sifati" kategoriyasi ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol bilan uzviy bog'liqdir. Ijtimoiy- iqtisodiy kategoriya sifatida turmush sifatini aniqlash uchun bog'lovchi bo'g'inlarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Ishlab chiqarish moddiy boyliklarni, ehtiyojlarni qondirish uchun asos yaratadi. Ishlab chiqarish natijasida olingan daromadlarni taqsimlashda uning alohida qismi inson ehtiyojlarini qondirish manbai vazifasini bajaradi. Ayirboshlash orqali inson ushbu manbadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi - uning ishlab chiqarishga qo'shgan mehnati daromadga almashtiriladi, buning natijasida inson o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'lib, uning turmush sifatini belgilaydi.

Rivojlanish darajasi va ehtiyojlarni qondirish darajasi bir xil darajada muhim bo'lganligi sababli, bizga V.N. Bobkovning "Turmush sifati - bu aholining rivojlanish darajasi va ehtiyojlarini qondirish darajasidir" [32] degan fikrlari ancha ma'qul keladi.

Ko'rib turganimizdek, yuqoridagi mualliflar ta'riflari turmush sifati tushunchasini rivojlanish va ehtiyojlarni qondirish bilan bog'laydilar. Turmush sifatini dinamik tahlil qilish uchun biz turmush sifatini ma'lum daromad miqdori va iste'mol narxlarining ma'lum darajasi uchun aholi tomonidan mahsulot va xizmatlarni iste'mol qilish darajasi sifatida belgilashni taklif qilamiz. Bizning fikrimizcha, turmush darajasini belgilovchi deyarli barcha ehtiyojlar moddiy asosga ega - ularni qondirishning eng muhim manbalaridan biri daromad hisoblanadi. Shunday qilib, ma'lum bir darajaning shakllanishiga va shunga mos ravishda aholining hayot sifatiga ta'sir qiluvchi asosiy komponent bu uning bozor iqtisodiyoti sharoitida notekis taqsimlangan daromadidir.

Yuqorida tavsiflangan ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyalarning o'zaro bog'liqligidan ko'rinib turibdiki, turmush sifati murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha bo'lib, erishilgan daromad evaziga aholini zarur moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlashni aks ettiradi va bu o'z navbatida, yuqori darajada rivojlangan ehtiyoj va manfaatlarni qondirish darajasini hisobga olgan holda hayot kechirish sifati orqali ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ijtimoiy siyosat. O'quv qo'llanma i.f.d., prof. A.V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida. Toshkent.: Universitet, 2019. 242 b.
2. Azimov, B. F., & Rakhimova, D. D. (2022). THE ROLE OF RESEARCH AND INNOVATIONS IN THE MODERNIZATION OF THE REGIONAL ECONOMY. Conferencea, 43-47.
3. Azimov B.F, Rakhimova D.D., SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF AN INNOVATIVE APPROACH TO ECONOMIC DEVELOPMENT AND POVERTY REDUCTION IN UZBEKISTAN, International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences (IJARMSS), 2022, 11(3), PP26-32
4. Babajanian B. Hagen-Zanker, J. 2012. Social protection and social exclusion:

An analytical framework to assess the links, Background Note (London, Overseas Development Institute).

5. Baqoev Husan Nuriddinovich. (2020). **ECONOMETRIC ASSESSMENT OF THE IMPACT OF TAXES ON GOVERNMENT SUPPORT FOR ENTREPRENEURSHIP**. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 1(2), 8-9. <https://doi.org/10.47494/cajitmf.v1i2.53>

6. Basso G., Dolls M., Eichhorst W., Leoni T., Peichl A. 2012. "The effects of the recent economic crisis on social protection and labour market arrangements across socio-economic groups", in *Intereconomics*, Vol. 47, No. 4, 460 p.

7. Beattie, R.; McGillivray, W. 1995. "A risky strategy: reflections on the World Bank report *Averting the old age crisis*", in *International Social Security Review*, Vol. 48, No. 3–4, 168 p.

8. Behrendt C. 2013. "Investing in people: Implementing the extension of social security through national social protection floors", in D. Kucera and I. Islam (eds): *Beyond macroeconomic stability: Structural transformation and inclusive development* (Basingstoke, Palgrave Macmillan), 348 p.

9. Berg J. 2015a. "Labour market institutions: The building blocks of just societies", in J. Berg (ed.): *Labour markets, institutions and inequality: Building just societies in the 21st century* (Geneva, ILO; Cheltenham, Edward, Elgar), 215 p.

10. Cummins, R. A. *The Domains of Life Satisfaction: An Attempt to Order Chaos*. *Social Indicators Research*, 38 (1), 1996, – P. 303-332.

11. Felce, D., & Perry, J. *Quality of life: The Scope of the Term and its Breadth of Measurement*. In R. I. Brown (Ed.), *Quality life for people with disabilities: Models, research and practice*. UK: Stanley Thornes, Ltd. 1997, – P. 56-70.

12. Haas, B. K. *A Multidisciplinary Concept Analysis of Quality of Life*. *Western Journal of Nursing Research*, 21(6), 1999, – P. 728-742.

13. Hagerty, M.R., Cummins, R.A., Ferriss, A.L., Kand, K., Michalos, A.C., Peterson, M., Sharpe, A., Sirgy, M. J. & Vogel, J. *Quality of Life Indexes for National Policy: Review and Agenda for Research*. *Social Indicators Research*, 55(1), 2001, – 96 p.

14. Han T., D. Stanko (2018), "2018 Update on IOPS work on fees and charges", IOPS working papers on Effective Pension Supervision, 32

15. Kelsey J. O'Connor "Happiness and Welfare State Policy Around the World" *Review of Behavioral Economics*, 2017, 4: 397–420

16. Lindstrom, B., & Ericsson, B. *Quality of Life Among Children in the Nordic Countries*. *Quality of Life Research* (2), 1993, – P. 23-32.

17. Mearkle R., Mactaggart I., Walsham M., Kuper H.; Blanchet K. 2017. "Disability and social protection programmes in low- and middle-income countries: A systematic review", in *Oxford Development Studies*, Vol. 45, No. 3, 308 p.

18. Nuriddinovich, B. H. (2020). *Multiple econometric forecast of the*

development of small business activity in Navoi region. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 2(12), 27-36.

19. Nuriddinovich, B. H. (2022). Econometric Modeling of Production Infrastructures' Effects on The Industrial Network In The Navoi Region. *resmilitaris*, 12(3), 4029-4041.

20. Rashidov, M. K. (2021). THE URGENCY OF IMPROVING THE FUNCTIONING OF FREE ECONOMIC ZONES IN THE REGIONS. *Экономика: анализы и прогнозы*, (2), 13-21.

21. Rashidov, M. K. (2023). STRUCTURAL ASPECTS OF FREE ECONOMIC ZONES. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 119-123.

22. Sen A. *Etika va iqtisod bo'yicha: per. ingliz tilidan.* - M.: Nauka, 1996. - S. 132.

23. Susniene, D., & Jurkauskas, A. The Concepts of Quality of Life and Happiness - Correlation and Differences. *Inzinerine Ekonomika-Engineering Economics* (3), 2009, – P. 58-66.

24. Veenhoven, R. Apparent Quality of Life in Nations. How Long and Happy People Live. *Social Indicators Research* (71), 2005, – P. 61-68.

25. Veenhoven, R. The Four Qualities of Life: Ordering Concepts and Measures of the Good Life. *Journal of Happiness Studies* (1), 2000, – P. 1-39.

26. Violeta Pukeliene, Viktorija Starkauskiene. Quality of Life: Factors Determining its Measurement Complexity. *Inzinerine Ekonomika-Engineering Economics*, 22(2), 2011, – P. 147-156.

27. Абдуллаева М.К. Ижтимоий ҳимоя ва уни тартибга солишни такомиллаштириш йўналишлари. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Т., 2008, 25 б.

28. Абулқосимов Ҳ.П., Ҳасанов Р.Р. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ислохотлар. Т.: Академия, 2010. 216 б.

29. Азимов, Б. Ф. Формирование и совершенствование стратегии поддержки инновационной деятельности в регионах Республики Узбекистан / Б. Ф. Азимов // Молодой ученый. – 2022. – № 12(407). – С. 63-65. – EDN VQOYFQ.

30. Антропов В.В. Социальная защита в странах Европейского союза. История, организация, финансирование, проблемы. М., 2006. 276 стр.

31. Б.Ф. Азимов, А.Ч. Бобоев, & Ж.Ж. Абдуллаев (2022). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭКСПОРТНЫХ ДРАЙВЕРОВ РЕГИОНА ПУТЕМ АНАЛИЗА ВНЕШНЕТОРГОВОГО ОБОРОТА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. *Ученый XXI века*, (7 (88)), 20-24.

32. Бобков В.Н., Масловский-Мстиславский П.С. Динамика уровня жизни населения // *Экономист*. – 1994. – № 6. – С. 58.

33. Волгин Н.А. Социальная политика. Учебник. ред. Н.А. Волгин. 2-е изд., перераб. И доп. М.: РАГС, 2008. 409 с.

34. Джуманова Р.Ф. Аҳоли турмуш даражаси: кўрсаткичлари ва уни ошириш йўллари. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Т.: 2008, 27 б.

35. Закирова Н. Совершенствование системы социальной защиты населения в условиях социально-ориентированной рыночной экономики (на примере семей Республики Узбекистан). Т. 2001, 24 с.

36. Ижтимоий соҳа иқтисодиёти. Дарслик. и.ф.д., проф. Қ.Х. Абдурахмонов тахрири остида. Т.: Иқтисодиёт. 2013. 418 б.

37. Калашников С.В. Очерки теории социального государства.; С.В. Калашников. М.: Экономика, 2012. 324 с.

38. Медков В.М. Качество населения: сущность, содержание, критерии // Народонаселение. Современное состояние научного знания / Под ред. Д.И. Валентя. – М.: Изд-во МГУ, 1991, – С. 57.

39. Отеулиев М. О. Территориальные различия качества жизни населения (на примере Республики Каракалпакстан): Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата географических наук: С.: 2022, 45 с.

40. Рашидов, М. (2018). Мировой опыт развития свободных экономических зон. Экономика и инновационные технологии, (5), 126–140. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/10650

41. Рашидов, М., & Бакоев, Х. . (2019). Эконометрический анализ показателей деятельности свободных экономических зон. Экономика и инновационные технологии, (1), 125–136. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/10688

42. Социологические обследование уровня и качество жизни населения с использованием информационной технологий. под.ред. Ахмедов Т.М. Т.: Fan va texnologiya, 2017, 132 с.

43. Хакимова М.А. Реформирование и развития социального сектора Узбекистана в условиях перехода к рынку: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук: Т.: 2000, 38 с.

44. Хасанов Р.Р. Шаклланаётган бозор муносабатлари тизимида даромадлар ва уларнинг табақаланиши. Иқт. фан. докт. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореф. Т., 2005. 40 б.

45. Хусанов Б.Ш. Проблемы регулирования финансового механизма социального обеспечения населения: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук: Т.: 2011, 25 с.

46. Шароков Ф.И. Основы социального государства. Учебник. М.: Дашков и Ко, 2012. 314 с.